

BESH MUHIM TASHABBUS – KELAJAKKA MUSTAHKAM POYDEVOR

Rahmonova Marjona Anvarovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 1-fakulteti talabasi

Annotatsiya: Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlарimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ziddiyatlar, ma'naviy immunitet, tashabbus, prezident

FIVE IMPORTANT INITIATIVES - A STRONG FOUNDATION
FOR THE FUTURE

Rahmonova Marjona Anvarovna

Uzbekistan state world languages university English faculty N1

Annotation: In today's world, where various conflicts are intensifying, strengthening the spiritual immunity of our youth and spending their free time in a meaningful way is more urgent than ever. Therefore, 5 important initiatives put forward by the president are important.

Keywords: conflicts, moral immunity, initiative, president

ПЯТЬ ВАЖНЫХ ИНИЦИАТИВ – ПРОЧНЫЙ ФУНДАМЕНТ НА
БУДУЩЕЕ

Рахмонова Маржона Анваровна

Узбекский государственный университет мировых языков

1-й факультет английского языка

Аннотация: В современном мире, где обостряются различные конфликты, как никогда актуально укрепление духовного иммунитета нашей молодежи и содержательное проведение свободного времени. Поэтому важны 5 важных инициатив, выдвинутых президентом.

Ключевые слова: конфликты, моральный иммунитет, инициатива, президент

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellectual salohiyati muhim o'rinni tutadi. Yosh avlodga berayotgan bilimimiz vatanimiz kelajagi uchun bir poydevor hisoblanadi. Biz poydevorni qanchalik mustahkam qilsak, u shunchalik chidamli, har qanday vaziyatda qulamaydigan, yillar o'tsada o'z haybati bilan lol qoldiradigan bir ko'rinish kasb etadi. Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yet illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. **Birinchi tashabbus** – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. **Ikkinchi tashabbus** – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. **Uchinchi tashabbus** – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. **To'rtinchi tashabbus** – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. **Beshinchi tashabbus** – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiyлarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Besh muhim tashabbus dastlab Toshkent viloyatining Bo'ka tumani va Toshkent shahrining Uchtepa tumanida tajriba sifatida joriy etildi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparatining besh tashabbus loyihibalarini muvofiqlashtirish boshqarma bosqlig'i Mansur Masharipov. — 42 ta tuman va shaharlarning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahalla fuqarolar yig'inlarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Shuningdek, birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo‘yicha yurtimizdagи mavjud 800dan ortiq madaniyat markazlarida 4522 ta to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularga 1762 ta musiqa jihozи yetkazib berilgan. Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan 36503 ta to‘garakka 1 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at va musiqa yo‘nalishidagi 36 503 ta to‘garaklarga 1,1 mln.nafar (18%) o‘quvchi-yoshlar jalb qilingan. 3 mingdan ortiq musiqa jihozlari yetkazib berilgan.

Jumladan ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo‘yicha umumta’lim maktablarida 10 ta sport turi bo‘yicha 49 196 ta sport to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 1,2 mln nafar o‘quvchi-yoshlar muntazam shug‘ullanib kelishayotganligi hamda 254 ta Bolalar va o‘smirlar sport maktablariga 328 875 nafar, 54 ta Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga 33 438 nafar o‘quvchi-yoshlar jalb qilinganligi haqida ma’lumotlar aytib o‘tildi.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish bo‘yichayoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishini tashkil etish maqsadida 72 ta “Raqamlı texnologiyalar o‘quv markazi” faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi ham yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

To‘rtinchı tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Ma’rifat karvoni” tadbirdari doirasida 3 mln dan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomdagi 590 ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagи barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi.

An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanloviga 2017-2019-yillar davomida 2 mln. 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 8 nafar tanlov g‘oliblari bo‘lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg‘asi “Spark” avtomashinasi sovrindori bo‘lganligi ham yoshlarimizni kitobxonlik ruhiga yana qaytganini yorqin isbotidir.

Tadbirda “Yosh kitobxon” tanlovining 2020-yilgi saralash bosqichlari 23-25-dekabr’ kunlari barcha tuman (shahar)larda o‘tkazilishi to‘g‘risida ham ma’lumot berildi va bu jarayon online tarzda amalga oshirilishi aytib o‘tildi.

Beshinchı tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash ishlarini tizimli tashkil etish yo‘nalishi ham eng dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib bugunga kelib Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan sohaga oid tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi hususida qizg‘in muzokaralar bo‘ldi. Hozirgi kunda respublikamizda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar soni 3 596 406 nafarni

tashkil qilmoqda. Joriy yilda 76,2 mld. so‘m imtiyozli mablag‘lar evaziga 76 198 nafar yosh xotin-qizlar ish bilan ta’minlandi, shuningdek, 15 935 nafar yosh xotin-qizlar kasb-hunarga o‘rgatildi.

Shu vatanda yashovchi har qanday shaxs o‘z farzandiga, yaqinlariga, mahalla va hatto begona bola tarbiyasiga ham befarq bo’lmasligi darkor. Bir insondan butun bir jamiyat paydo bo’ladi. Agar biz birgina o’sayotgan yosh avlodning kelajagi uchun, hayoti uchun qo’limizdan kelgan yordamni ayamasak, biz butun bir jamiyatga yordam bergen bo’lamiz. Tashabbus faqat keng quloch yoyaversin, degan purma’no hikmat bejiz aytilmagan. Yurtboshimizning yoshlari kelajagiga qaratilgan 5 tashabbusi to abad farzandlarimizga qanot baxsh etaveradi

Foydalilanigan havolalar (Links used ; Используемые ссылки)

1. <https://yuz.uz/uz/news/5-muhim-tashabbus-yoshlarga-qanot>
2. <https://www.savol-javob.com/5-tashabbus-haqida-referat/>
3. <https://lyceum.tma.uz/besh-muhim-tashabbus/>